

**TINCHLIK – ENG ULUG‘ NE’MAT: TINCHLIK UCHUN KURASHGAN
MILLIY QAHRAMONLAR XOTIRASI**

Ergasheva Mohizarbegim Elmurod qizi

TDSHU 2-bosqich talabasi

+998931245655

Annotatsiya: Mazkur maqolada tinchlikning inson hayotidagi beqiyos o‘rni, uning jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi uchun ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yurtimizning mustaqilligi va osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qilgan milliy qahramonlarning jasorati, ularning tinchlik yo‘lidagi fidokorona xizmatlari xotiralanadi.

Abstract: The article emphasizes the invaluable role of peace in human life and its importance for the development and stability of society. We also honor the memory of the courage of national heroes who gave their lives for the independence and peace of our country, and their selfless service to the cause of peace.

Аннотация: В статье подчеркивается неоценимая роль мира в жизни человека и его значение для развития и стабильности общества. Мы также чтим память мужества национальных героев, отдавших свои жизни за независимость и мир нашей страны, и их бескорыстное служение делу мира.

Kalit so‘zlar: tinchlik, urush, xotira, Sobir Rahimov, Zebo G‘anieva, Sharof Rashidov, Shodi Shoimov, G‘alaba bog‘i.

Keywords: peace, war, memory, Sobir Rakhimov, Zebo Ganieva, Sharof Rashidov, Shodi Shoimov, Victory Park.

Ключевые слова: мир, война, память, Собир Рахимов, Зебо Ганиева, Шароф Рашидов, Шоди Шоймов, Парк Победы.

Kirish: Bugungi kunda dunyo uchun „noyob“ bo‘lib borayotgan tinchlik – insoniyatning eng buyuk orzusidir. U nafaqat ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni, balki har bir insonga ichki osoyishtalikni, xavfsizlikni va farovonlikni taqdim etadi. Notinchliklarga sabab bo‘lgan urush necha millionlab odamlarning yostig‘ini quritib, insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar soldi, bolalarni otasidan, otalarni farzandidan judo qildi. Beshavqat bo‘lgan urushlar odamlarni yo‘q qildi, Yer yuzini vayron qildi, svilizatsiyalar, tarixiy meroslarni qo‘porib tashladi. Shunday vaziyatda urushga qarshi chiqib, tinchlik uchun kurashgan, osoyishtalik yo‘lida jonlarini fido qilganlarni xotirlab o‘tmaklik insoniyatning asosiy burchlaridan biridir. Ularning fidokorona jasorati tufayli bugun dunyo ahli tinch hayot kechirmoqda.

Asosiy qism: „Ayni vaqtda, jang maydonlarida mardlik va jasorat ko‘rsatgan, front orqasida fidokorona mehnat qilib, bugun oramizda sog‘-

salomat bo‘lib yurgan muhtaram faxriyalarimizga ta’zim qilamiz. Hozirgi tinch-osoyshta hayotimiz, musaffo osmonimiz uchun ularga cheksiz minnatdorchilik bildiramiz. Hech shubhasiz, bu dahshatli urush butun insoniyat qatori bizning xalqimizga ham mislsiz kulfat va yo‘qotishlar olib keldi.

Ikkinci jahon urushida yuzlab yurtdoshlarimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi, minglab otalarimiz, bobolarimiz jangovar orden va medallar bilan mukofotlandilar.

Xalqimiz front ortida fidokorona mehnat qilib urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, quroq-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi...¹ – deya ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkillashtirgan marosimdagagi nutqida.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Ikkinci jahon urushi yillarida (1941–1945) O‘zbekistondan 2 millionga yaqin inson frontga jo‘natilgan. Ulardan 500 mingdan ziyodi urushdan qaytmagan, minglab o‘zbek o‘g‘lonlari jasorat ko‘rsatib, Vatan ozodligi yo‘lida halok bo‘lishgan. Bu davrda O‘zbekiston aholisi 6.8 million nafar bo‘lgan. Ya’ni aholining deyarli 1/3 qismi urushga safarbar qilingan. Vatan ozodligi yo‘lida mardonavor jang qilganlarning bari qahramon. Ammo quyidagilarni ikki karra qahramon deyish mumkin:

Sobir Rahimov – birinchi o‘zbek generali. Berlin yaqinidagi janglarda og‘ir yaralanib, halok bo‘lgan. U jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan va Sobir Rahimov nomi bilan Toshkentda ko‘plab ko‘chalar va maktablar atalgan. O‘zbekning „Temir generali“ nomi bilan mashhurdir.²

Zebo G‘anieva – ayol bo‘lsa-da, 129 nafar dushman askarlarini o‘ldirib, Ikkinci jahon urushida radiooperator, razvedkachi bo‘lib qatnashgan, urush uchun ilmiy faoliyatini tashlab, ko‘ngilli bo‘lib kelgan. Zebo G‘aniyeva snayper bo‘lib xizmat qilgan, ko‘plab fashistlarni yo‘q qilgan. Urushdan keyin ham ilmga qaytib, sharqshunoslik sohasiga qo‘sghan hissasi beqiyosdir.³

Sharof Rashidov – sovet partiyasi vakili, o‘zbek yozuvchisi. O‘zbekiston SSR Kompartiyasi MQning Birinchi Kotibi. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi. Rashidov O‘zbekiston Respublikasiga rahbarlik qilgan davrda ko‘plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, shu bilan birga qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarasiz, ekstensiv foydalanish, paxta yetishtirishga haddan tashqari urg‘u berilish kabi ekologik muammolar yuzaga kelgan.⁴ Rashidov haqida uning zamondoshlaridan biri shunday deydi: „Hokimiyat tepasiga Andropov kelishi bilan, Gorbachyov shu

¹ <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-9-may-khotira-va--09-05-2017>

² <https://kun.uz/uz/news/2020/06/24/temir-general-ozbek-va-polyak-xalqlari-qahramoni-sobir-rahimovning-hayot-yoli>

³ Murmanseva V.S „Ulug‘ Vatan urushidagi sovet ayollari“. M., Fikr, 1974-yil.

⁴ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

zahoti o‘ziga erk berib yubordi. O‘zining muvaffaqiyatlarini ko‘z-ko‘z qilishni boshladi. Eslayman, Rashidov paxta topshirishni oshirishi uchun, Gorbachyov qanday qilib O‘zbekiston rahbarining qo‘llarini qayiltirganini. Rashidov tushuntirishga, ko‘ndirishga harakat qilardi: „Bizda yomg‘ir bilan qor yog‘di, hammasi muzlab qolgan. Agar shu ahvolda ham terib oladigan bo‘lsak, buni quritishimiz uchun yarim yil ketadi“. Gorbachyov esa: „Baribir ko‘proq topshiringlar“.⁵

Belarusdagi janglarning birida o‘zbek qahramoni Shodi Shoimov maxsus guruh bilan birinchilardan bo‘lib tashabbus ko‘rsatadi. Qo‘l jangida u 13 fashistni yakson qilib, diviziyaga yo‘l ochadi. Biroq u og‘ir yaralanib, vafot etadi. U atigi 18 yoshda edi va jasorati uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Surati qolmagan bu qahramonning byusti singlisi Tilovatning rasmini asos qilib tiklangan. Aravon qishlog‘idagi maktabga, Shahrisabz shahridagi ko‘chalardan biriga va kinoteatrga uning nomi berilgan. Shahrisabzning markaziy maydoniga haykali qo‘yilgan.⁶

Shuningdek, sharqshunos va eronshunos olim Shomuhamedov Shoislom ham Ikkinci jahon urushi qatnashchisidir. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor bo‘lgan bu inson ham yurt farovonligi uchun dushmanga qarshi kurashganlardandir.

Bu insonlar vatanni himoya qilish yo‘lida o‘z jonini fido qilishgan. Ular faqat urushda emas, balki urushdan keyingi tiklanish ishlarida, yoshlarga o‘rnak bo‘lishda ham muhim o‘rin tutgan. Ularning nomlari yodgorliklar, maktab darsliklari, ko‘cha nomlari orqali abadiylashtirilgan. Masalan, Toshkentda tuman, metro stansiyasi (keyinchalik bu stansiya Olmazor nomiga o‘zgargan), bir necha maktabga Rahimov nomi berilgan. Rahimov haqida „General Rahimov“ badiiy filmi yaratilgan (1967). Toshkent shahrining Sobir Rahimov tumanida va Samarqand viloyatida Rahimov haykallari o‘rnatilgan, maktablarga uning nomi berilgan.⁷ Zebo G‘anievaga bag‘ishlab esa hujjatli filmlar yaratilgan, Toshkentdagi „G‘alaba bog‘i“ yodgorlik majmuasi – bularning barchasi tarixiy xotirani saqlash, yosh avlodga ibrat ko‘rsatish maqsadida yaratilgan. Qolaversa, Ikkinci jahon urushida qatnashgan jangchilarning nomlari turli online saytlarda ta’kidlangan. Xususan, war-heroes.uz saytida askarlarni hudud bo‘yicha taqsimlab, ularning barchalari haqida ma’lumot keltiriladi.

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish uchun tarixiy qahramonlar hayoti eng kuchli ibrat manbai bo‘la oladi. Ularning jasorati, fidoyiligi, Vatanni himoya qilish yo‘lida chekkan azob-uqubatlari yosh avlodni o‘z yurti va xalqiga mehr bilan qarashga undaydi.

Masalan, Shodi Shoimov, Sobir Rahimov, Zebo G‘anieva kabi jasur insonlarning hayoti o‘quv darsliklarida, hujjatli filmlarda, adabiyot va san’at asarlarida

⁵ V.Boldin Kommersant — Vlast, 15-may 2001, 61 bet.

⁶ Kargapolsev, Sergey. «Шаймов Шади» warheroes.ru (rus.)

⁷ O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

o‘z aksini topmoqda. “Hech kim va hech narsa unutilmaydi” tamoyili esa o‘tmishdagi har bir fidokor inson xotirasi abadiylashtirilishini anglatadi.

Xulosa: Tinchlikka erishish uchun qanchadan-qancha jonlar qurbon bo‘ldi. Ularning shu jasorati uchun ham xotiradan o‘chirmaslik, nomlarini tarixga muhrlab, abadiylashtirish lozimdir. Dunyodagi tinchlikni saqlash esa halok bo‘lgan askarlar ruhi oldidagi majburiyat va ularga ko‘rsatilgan oliy hurmatdir. Insoniyat uchun tinchlikdan bo‘lak aziz ne’mat yo‘qdir. „Hech qachon yaxshi urush yoki yomon tinchlik bo‘lmagan.“ (*Benjamin Franklin*)

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyevning-9-may-khotira-va--09-05-2017>
2. Kargapolsev, Sergey. «Шаимов Шади» warheroes.ru (rus.)
3. Murmanseva V.S „Ulug‘ Vatan urushidagi sovet ayollari“. M., Fikr, 1974-yil.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. V.Boldin Kommersant — Vlast, 15-may 2001, 61 bet.
6. <https://kun.uz/uz/news/2020/06/24/temir-general-ozbek-va-polyak-xalqlari-qahramoni-sobir-rahimovning-hayot-yoli>
7. Warheros.uz